



2023- yil may


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA
ISTE‘MOL NARXLARI INDEKSI**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BO'YICHA YIG'MA ISTE'MOL NARXLARI INDEKSI (INI)

Iste'mol narxlari indeksi (INI) iste'mol sektoridagi inflyatsion jarayonlarning asosiy indikatorini sifatida alohida o'rin egallab, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy holatini baholashda hal qiluvchi ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.


MAY OYIDAGI YIG'MA INI, % da

o'tgan oyga nisbatan



2023- yilning may oyida oylik INI **100,5 %** ni, 2022- yilning dekabriga nisbatan esa **103,8 %** ni tashkil etdi. INI o'rtacha oylik o'sish sur'ati joriy yilning yanvar-mayida **0,7 %** ga yetdi.


o'tgan yilning dekabriga nisbatan



Yillik nisbatda (o'tgan yilning mayiga nisbatan) yig'ma INI **110,4 %** darajasida qayd etildi.


Yanvar-may oqidagi o'rtacha oylik o'sish sur'ati, % da

o'tgan yilning mayiga nisbatan




AYRIM XORIJIY DAVLATLARDAGI YIG‘MA INI

2023- yilning aprel oyida Yevropa Ittifoqining ayrim davlatlaridagi uyg‘unlashtirilgan (garmonik) indeks, o‘shish (pasayish) sur‘ati % da¹



2023- yilning aprel oyida ayrim davlatlardagi yig‘ma INI, o‘shish (pasayish) sur‘ati % da²



¹⁾ https://ec.europa.eu/eurostat/databrowser/view/PRC_HICP_MANR__custom_3761882/bookmark/table?lang=en&bookmarkId=4ad27e6f-358a-4a3d-82a0-587d69a833eb

²⁾ milliy statistika xizmatlarining rasmiy saytlaridan olingan ma‘lumotlar asosida

INI turli shakllarda dunyoning ko‘plab davlatlarida, shu jumladan, qo‘shni davlatlarda ham hisoblanadi.

Yevropa Ittifoqi doirasida milliy INIdan tashqari uyg‘unlashtirilgan (garmonik) INI ham e‘lon qilinib, mazkur indeks uyg‘unlashtirilgan ko‘rsatkichlarga muvofiq hisob-kitob qilinadi va shu sababdan Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridagi iste‘mol inflyatsiyasini xalqaro taqqoslash uchun maqbul statistik asos hisoblanadi.

Respublikada INIning hisoblash 1994- yilda XVJning texnik ko‘magi ostida joriy qilingan. INIning shakllantirishga “Iste‘mol narxlari indeksi bo‘yicha qo‘llanma: Nazariya va amaliyot” (XVJ, IHRT, Yevrostat, BMT, YIK, Jahon banki va XMT) tavsiyalarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan Tovarlar va xizmatlarning iste‘mol narxlari (tariflari) kuzatuvini tashkil etish hamda iste‘mol narxlari indeksini hisoblash bo‘yicha uslubiy nizom (Davlat statistika qo‘mitasining 2022- yil 27- sentabrdagi 33-son qarori bilan yangi tahriri tasdiqlangan) asos bo‘lib xizmat qiladi <https://lib.stat.uz>.



MAY OYIDA TOVARLAR VA XIZMATLAR INI, % da

2023- yilning mayida tovarlar va xizmatlar bo'yicha INI oy davomida **100,5 %** ni tashkil etdi. Joriy yil boshidan ushbu ko'rsatkich mos ravishda **104,1 %** va **102,7 %** ga yetdi. Yillik nisbatda ko'rsatkich **110,9 %** va **108,6 %** ni tashkil etdi.


TOVARLAR

XIZMATLAR



o'tgan oyga nisbatan



o'tgan yilning dekabriga nisbatan



o'tgan yilning mayiga nisbatan



Tasdiqlangan Uslubiy nizomga muvofiq, narxlarni ro'yxatga olish har oyning **10-** sanasidan **20-** sanasigacha amalga oshiriladi. Ma'lumotlarni yig'ish shunday tashkil etilganki, bu vaqt oralig'ida narxlarni ro'yxatga olish har bir tovar va xizmat bo'yicha bir marta amalga oshiriladi va qo'shni davrlar uchun ro'yxatga olish oralig'i bir kalendar oyni tashkil qiladi. INIning hisoblashda faqatgina inflyatsiya omillarini aniqlash uchun assortiment va hududiy siljishlar omillarining ta'siri chiqarib tashlanadi. Har oyda **10 mingdan ortiq** savdo nuqtalari va xizmat ko'rsatish obyektlari kuzatiladi, **120 mingdan ortiq** narx kotirovkalari qayd etiladi.

TOVARLAR VA XIZMATLAR ASOSIY GURUHLARINING INI, % DA

JAMI **510** ta

Narxlar o'zgarishini kuzatish uchun shakllantirilgan **510 ta pozitsiyadan** iborat tovarlar va xizmatlar to'plami uchta yirik guruhga bo'lingan.

170

250


90

oziq-ovqat mahsulotlari


nooziq-ovqat mahsulotlar

xizmatlar


may oyida o'tgan oyga nisbatan



may oyida o'tgan yilning dekabriga nisbatan



may oyida o'tgan yilning mayiga nisbatan



2023- yilning mayida oziq-ovqat mahsulotlari, nooziq-ovqat mahsulotlar va xizmatlar bo'yicha qisqa muddatli INI barobar bo'ldi hamda **100,5 %** ni tashkil etdi. Joriy yilning yanvar-mayida INI oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha **105,3 %** ga, nooziq-ovqat mahsulotlar va xizmatlar bo'yicha esa **102,7 %** ga yetdi. Yillik nisbatdagi INI oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlar uchun **113,0 %** va **108,4 %** darajasida, xizmatlar uchun **108,6 %** darajasida qayd etildi.

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI HISOBISIZ INI, % da




may

oʻtgan oyga nisbatan




oʻtgan yilning dekabriga nisbatan

oʻtgan yilning mayiga nisbatan




YIGʻMA INI



TOVARLAR



OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI




Meva-sabzavot mahsulotlari narxlari oʻzgarishini hisobga olmaganda 2023- yilning mayidagi qisqa muddatli INI **100,8 %** ni tashkil etdi. 2022- yilning dekabriga nisbatan ushbu koʻrsatkich **103,0 %** darajasida, 2022- yilning mayiga nisbatan esa – **111,2 %** darajasida qayd etildi.

ASOSIY GURUHLARDA NARXLAR O'ZGARISHINING YIG'MA INI O'SISH SUR'ATIGA TA'SIRI TUZILMASI, f.d.

may oyida o'tgan oyga nisbatan

Jami ta'siri



2023- yilning aprelida oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'zgarishining oylik yig'ma INI o'sish sur'atiga ta'siri **0,22 f.d.** ni tashkil etdi. Ularning hissasiga kuzatiladigan barcha tovarlar va xizmatlar jami ta'sirining **44,9%** i to'g'ri keldi.

Nooziq-ovqat mahsulotlar ta'siri ulushi umumiy ta'sir darjasida **30,6 %** ni (ta'sir **0,15 f.d.**) va xizmatlar ta'siri ulushi esa **24,5 %** ni (ta'siri **0,12 f.d.**) tashkil etdi.

INIning shakllantirish quyidagi ikkita ma'lumotlar manbasi asosida amalga oshiriladi:

1) uy xo'jaliklarida o'tkaziladigan tanlanma kuzatuvlar ma'lumotlari asosida shakllanadigan aholining iste'mol xarajatlari tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar;

2) hududlar, savdo va xizmat ko'rsatish obyektlari, namuna tovarlar tanlanmasi doirasida narxlarni qayd etish ma'lumotlari.


Shunday qilib, har bir pozitsiyaning (bo'lim, guruh, aniq tovar yoki xizmat) yig'ma ko'rsatkich o'zgarishiga ta'siri pozitsiyaning narx o'zgarishlari va xarajatlar tarkibidagi salmoq vaznidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

ASOSIY GURUHLAR NARXLARI O'ZGARISHINING YIG'MA INI O'SISH SUR'ATIGA TA'SIRI TUZILMASI


Ta'siri, f.d.

Umumiy ta'sirdagi ulushi, % da

may o'tgan yilning dekabriga nisbatan



may o'tgan yilning mayiga nisbatan



■ Oziq-ovqat mahsulotlari ■ Nooziq-ovqat mahsulotlar ■ Xizmatlar


2023- yilning yanvar-mayida oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'zgarishining yig'ma INI o'sish sur'atiga ta'siri **2,23 f.d.** ni tashkil etdi. Ularning hissasiga kuzatiladigan barcha tovarlar va xizmatlar umumiy ta'sir darajasining **59,3 %** i to'g'ri keldi. Nooziq-ovqat mahsulotlarning umumiy ta'sir darajasidagi ulushi **24,2 %** ni (ta'siri **+0,91 f.d.**) tashkil etdi. Xizmatlar narxlari o'zgarishining ta'siri uchta asosiy guruhlar orasida eng past darajada bo'lib, **0,62 f.d. (16,5 %)** ga yetdi. Yillik nisbatdagi yig'ma INI tuzilmasida oziq-ovqat mahsulotlari hissasiga umumiy ta'sir darajasining **52,9 %** i, nooziq-ovqat mahsulotlar hissasiga **27,9 %** va xizmatlar hissasiga **19,2 %** to'g'ri keldi.

MAQSADLAR BO‘YICHA INDIVIDUAL ISTE‘MOL TASNIFLAGICHI – 2018 (O‘ZR MIIT – 2018) BO‘LIMLARI BO‘YICHA INI, % da


O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **2020- yil 3- avgustdagi PQ-4796-sonli qarori** bilan tasdiqlangan 2020-2025- yillarda O‘zbekiston Respublikasi statistikasini rivojlantirishning milliy strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha “YO‘L XARITASI”ning 36-bandi ijrosini ta‘minlash yuzasidan, 2021- yil yanvar oyidan boshlab, Davlat statistika qo‘mitasi MDHga a‘zo davlatlar orasida birinchilardan bo‘lib iste‘mol narxlari indeksi (INI)ni to‘liq BMTning Classification of Individual Consumption According to Purpose (COICOP) 2018 xalqaro standartiga asoslangan, Maqsadlar bo‘yicha individual iste‘mol tasniflagichi – 2018 (MIIT – 2018) asosida shakllantirishni joriy etdi.

may oyida o‘tgan oyga nisbatan *


I. Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar




II. Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari




III. Kiyim va poyabzal




IV. Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg‘i turlari



V. Uy-ro‘zg‘or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga xizmat ko‘rsatish




VI. Sog‘liqni saqlash




* Statistika maqsadlarida 2020- yil uchun narxlar indeksi O‘ZR MIIT–2018 bazasi tuzilmasida qayta hisob-kitob qilingan.

may oyida o‘tgan oyga nisbatan


VII. Transport




VIII. Axborot va aloqa




IX. Dam olish, sport va madaniyat




X. Ta’lim sohasidagi xizmatlar




XI. Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari



XII. Sug‘urtalash va moliyaviy xizmatlar




XIII. Maishiy tovarlar va xizmatlar va boshqa tovarlar va xizmatlar




2023- yilning mayida “Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar” (I), “Kiyimlar va poyabzallar” (III), “Turar joy xizmatlari, suv, elektr energiyasi, gaz va boshqa yonilg‘i turlari” (IV), “Transport” (VII), “Axborot va aloqa” (VIII), “Ta’lim sohasidagi xizmatlar” (X), “Sug‘urtalash va moliyaviy xizmatlar” (XII) bo‘limlari bo‘yicha qisqa muddatli oylik INI barcha bo‘limlar bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan (100,5 %) past bo‘ldi.

may oyida o'tgan yilning dekabriga nisbatan


I. Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar




II. Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari




III. Kiyim va poyabzal




IV. Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari




V. Uy-ro'zg'or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga xizmat ko'rsatish




VI. Sog'liqni saqlash



VII. Transport




VIII. Axborot va aloqa




may oyida o‘tgan yilning dekabriga nisbatan


IX. Dam olish, sport va madaniyat




X. Ta‘lim sohasidagi xizmatlar




XI. Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari



XII. Sug‘urtalash va moliyaviy xizmatlar



XIII. Maishiy tovarlar va xizmatlar, boshqa tovarlar va xizmatlar



IZOH: O‘zR MIIT – 2018 tasniflagichi 2021- yildan INIning hisoblash amaliyotiga joriy etilgan. Statistik maqsadlarda 2021- yilning uzoq muddatli narxlar indeksini shakllantirish uchun 2020- yildagi qisqa muddatli INI O‘zR MIIT – 2018 tuzilmasi bo‘yicha qayta hisob-kitob qilingan.

“Transport” (VII) bo‘limidan boshqa barcha bo‘limlarda 2023- yilning yanvar-mayidagi INI o‘tgan yilning mos ko‘rsatkichidan past darajada bo‘ldi.

Joriy yil boshidan “Ta‘lim sohasidagi xizmatlar” (X) bo‘limida INI 100,0 % dan past darajada saqlanib qolib, bu holat davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlari xizmatlari uchun to‘lov qiymatining I chorakda yangilanishi bilan bog‘liq.

O‘ZR MIIT – 2018 BO‘LIMLARI BO‘YICHA INI, % da

may oyida o‘tgan yilning mayiga nisbatan

I. OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTSIZ ICHIMLIKLER		II. SPIRTL ICHIMLIKLER VA TAMAKI MAHSULOTLARI		III. KIYIMLAR VA POYABZAL	
2021- yil	114,5	2021- yil	110,1	2021- yil	107,0
2022- yil	114,0	2022- yil	109,9	2022- yil	108,1
2023- yil	112,6	2023- yil	110,4	2023- yil	107,1

IV. TURAR JOY XIZMATLARI, SUV, ELEKTR, GAZ VA BOSHQA YONILG‘I TURLARI		V. UY-RO‘ZG‘OR ASBOBLARI, MAISHIY TEXNIKA VA TURAR JOYLARGA XIZMAT KO‘RSATISH		VI. SOG‘LIQNI SAQLASH	
2021- yil	107,3	2021- yil	107,9	2021- yil	111,1
2022- yil	103,5	2022- yil	110,9	2022- yil	110,2
2023- yil	105,0	2023- yil	109,8	2023- yil	116,0

VII. TRANSPORT		VIII. AXBOROT VA ALOQA		IX. DAM OLISH, SPORT VA MADANIYAT	
2021- yil	112,1	2021- yil	103,5	2021- yil	108,1
2022- yil	112,0	2022- yil	103,3	2022- yil	113,5
2023- yil	109,8	2023- yil	100,6	2023- yil	111,6

X. TA‘LIM SOHASIDAGI XIZMATLAR		XI. RESTORANLAR VA MEHMONXONALAR XIZMATLARI		XII. SUG‘URTALASH VA MOLIVAVIY XIZMATLAR	
2021- yil	103,8	2021- yil	115,1	2021- yil	103,5
2022- yil	107,5	2022- yil	118,0	2022- yil	101,0
2023- yil	103,0	2023- yil	123,3	2023- yil	103,2


XIII. MAISHIY TOVARLAR VA XIZMATLAR, TURLI TOVARLAR VA XIZMATLAR	
2021- yil	111,2
2022- yil	112,3
2023- yil	112,2

2023- yilning may oyida ta‘lim sohasidagi xizmatlar (**103,0 %**) hamda sug‘urtalash va moliyaviy xizmatlarda (**103,2 %**) eng past INI kuzatildi.


“OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTSIZ ICHIMLIKLER” BO‘LIMI (I), % DA

may oyida o‘tgan oyga nisbatan


Donli ekinlar va yorma mahsulotlari



Go‘sh t va go‘sh t mahsulotlari




Baliq va boshqa dengiz mahsulotlari




Sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum




Yog‘lar va moylar



Mevalar va yong‘oqlar



Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar



Shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar



Tayyor oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari



Spirtsiz ichimliklar



2023- yilning mayida “Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar” guruhida narxlar pasayishi inflyatsiyani tutib turuvchi omil bo‘ldi. Mazkur mahsulotlar bo‘yicha INI may oyida **94,6 %** ni tashkil etdi.

100,0 % lik chegaradan past darajadagi INI yog‘-moy mahsulotlarida (**99,1 %**) ham qayd etildi.

Bundan tashqari, go‘sh t va baliq mahsulotlaridan tashqari bo‘limning aksariyat guruhlarida qisqa muddatli INI 2023- yilning mayida o‘tgan yilning mayidagi ko‘rsatkichdan past bo‘ldi.

“OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTSIZ ICHIMLIKLER” BO‘LIMI (I), % DA

aprel oyida o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

Donli ekinlar va yorma mahsulotlari



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

Go‘sh t mahsulotlari



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.



Baliq va boshqa dengiz mahsulotlari




2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

Sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum




2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

Yog‘lar va moylar



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

Mevalar va yong‘oqlar



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar




2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

Shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

Tayyor oziq-ovqat mahsulotlari



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

Spirtsiz ichimliklar



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

Yog‘-moy mahsulotlarining joriy yilning mayidagi o‘rtacha narxlar darajasi 2022- yilning yakuniga nisbatan past bo‘ldi. “Yog‘lar va moylar” guruhi bo‘yicha INI 2023- yilning besh oyi davomida **95,2 %** ni tashkil etdi.

Mavsumiylik omilining meva-sabzavot mahsulotlari narxlarining o‘shish sur‘atiga ta‘siri saqlanib qoldi.

Mevalar va yong‘oqlarda 2023- yilning mayida 2022- yilning dekabriga nisbatan INI **113,7 %** ga, sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilarda **111,2 %** ga yetdi.

2022- yilning yanvar-mayidagiga nisbatan yuqori INI donli ekinlar va yorma mahsulotlarida (**104,3 %** ga **110,9 %**) qayd etildi.

“OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTSIZ ICHIMLIKLAR” BO‘LIMI (I), % DA

may oyida o‘tgan yilning mayiga nisbatan

Donli ekinlar va yorma mahsulotlari



2021- y. 2022- y. 2023- y.

Go‘sh va go‘sh mahsulotlari



2021- y. 2022- y. 2023- y.



Baliq va boshqa dengiz mahsulotlari



2021- y. 2022- y. 2023- y.

Sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum



2021- y. 2022- y. 2023- y.



Yog‘lar va moylar



2021- y. 2022- y. 2023- y.

Mevalar va yong‘oqlar



2021- y. 2022- y. 2023- y.

Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar



2021- y. 2022- y. 2023- y.

Shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar



2021- y. 2022- y. 2023- y.

Tayyor oziq-ovqat mahsulotlari



2021- y. 2022- y. 2023- y.

Spirtsiz ichimliklar




2021- y. 2022- y. 2023- y.

2023- yilning mayida “Baliq va boshqa dengiz mahsulotlari”, “Yog‘lar va moylar”, “Mevalar va yong‘oqlar”, “Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar”, “Tayyor oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari”, “Spirtsiz ichimliklar” guruhlarida yillik nisbatdagi INI 2022- yilning mayidagi mos ko‘rsatkichga qaraganda past darajada bo‘ldi. Shu bilan birga, joriy yilning mayida mevalar va yong‘oqlar hamda yog‘lar va moylar narxlarining o‘rtacha darajasi o‘tgan yilning mos oyidagi ko‘rsatkichdan pastligicha qoldi.

2023- YILNING MAYIDA ALOHIDA TURDAGI OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI INI, % da


Guruch va guruch oqshog'i




Bug'doy uni




Suyakli mol go'shti




Qo'y go'shti



Sut




Tuxum



Kungaboqar yog'i




Shakar




2023- YILNING MAYIDA ALOHIDA TURDAGI MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI INI, % DA


o'tgan oyga nisbatan



o'tgan yilning dekabriga nisbatan



o'tgan yilning mayiga nisbatan




■ narxleri oshgan mahsulotlar
■ narxleri pasaygan mahsulotlar

May oyida bir qator sabzavotlar narxida pasayish kuzatildi. Narxlarida pasayish kuzatilgan tovarlarning INI diapazoni 75,0 % dan (baqlajon) 99,5 % gacha (kartoshka) oraliqda joylashdi.

2022- yilning dekabriga nisbatan kuzatiladigan sabzavot turlari orasida bodring narxida eng yuqori pasayish kuzatildi. Baqlajon yillik nisbatda eng past INI qayd etilgan mahsulot sifatida qayd etildi.

2023- YIL MAY OYIDA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTLICHIMLIK
ASOSIY GURUHLARIDAGI NARXLAR O'ZGARISHINING YIG'MA INI O'SISH
(PASAYISH) SUR'ATIGA TA'SIRI, f.d.da



Go'sht mahsulotlari, mevalar va yong'ochlar, donli ekinlar va yorma mahsulotlari hamda shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar narxlarining oshishi hisobiga joriy yilning mayidagi qisqa muddatli yig'ma INI jami hisobda **0,36 f.d.** oshdi. "Yog'lar va moylar" va "Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkakililar" guruhlaridagi narxlarning pasayishi tutib turuvchi omil sifatida xizmat qilib, ularning hisobiga yig'ma ko'rsatkich **0,27 f.d.** pasaydi.

2023- yilning yanvar-mayidagi yig'ma INI o'sish sur'ati tuzilmasida meva-sabzavot va go'sht mahsulotlari, donli ekinlar va yorma mahsulotlari hamda shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar ta'siri salmoqli bo'ldi (jami ta'siri **+1,96 f.d.**). Yog'-moy mahsulotlari narxining pasayishi yig'ma INI **0,14 f.d.** qisqarishiga sabab bo'ldi.

Mevalar va yong'ochlar, yog'lar va moylar narxlarining pasayishi yillik nisbatdagi yig'ma INI o'zgarishini tutib turuvchi omil sifatida xizmat qildi (**-0,4 f.d.**).

“SPIRTLII ICHIMLIKLAR, TAMAKI MAHSULOTLARI” BO‘LIMI (II), % DA


MAY

o‘tgan oyga nisbatan


o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

o‘tgan yilning mayiga nisbatan

SPIRTLII ICHIMLIKLAR



TAMAKI MAHSULOTLARI



o‘tgan oyga nisbatan				o‘tgan yilning dekabriga nisbatan				o‘tgan yilning mayiga nisbatan		
2020- y.	2021- y.	2022- y.	2023- y.	2020- y.	2021- y.	2022- y.	2023- y.	2021- y.	2022- y.	2023- y.
VINO										
100,4	100,3	101,2	100,4	101,6	102,8	103,0	103,0	106,4	107,8	107,9
AROQ										
100,6	100,3	101,2	101,2	103,9	104,8	104,9	103,8	111,0	112,1	111,2
KONYAK										
101,0	100,4	100,8	101,7	102,9	104,6	102,1	104,2	107,2	107,5	109,1
PIVO										
100,9	100,6	101,7	99,9	103,1	102,8	103,8	103,1	105,9	107,5	110,0
SIGARET										
101,1	100,3	100,4	101,3	106,7	105,7	103,3	104,8	112,9	109,5	111,0
BOSHQA TAMAKI MAHSULOTLARI										
101,9	100,3	101,4	100,0	103,1	109,2	104,4	103,2	116,0	107,3	109,6

“KIYIM VA POYABZAL” BO‘LIMI (III), % DA


MAY

o‘tgan oyga nisbatan


o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

o‘tgan yilning mayiga nisbatan

KIYIM



POYAFZAL



o‘tgan oyga nisbatan				o‘tgan yilning dekabriga nisbatan				o‘tgan yilning mayiga nisbatan		
2020- y.	2021- y.	2022- y.	2023- y.	2020- y.	2021- y.	2022- y.	2023- y.	2021- y.	2022- y.	2023- y.
KIYIM TIKISH UCHUN MATERIALLAR										
100,3	100,4	101,3	100,3	102,8	101,6	104,5	101,7	107,8	107,8	107,1
USTKI KIYIM										
100,4	100,3	101,1	100,5	102,9	101,5	103,8	101,8	107,3	108,1	107,2
BOSHQA KIYIM PREDMETLARI VA FURNITURA										
100,6	100,2	101,0	100,4	102,5	101,3	103,5	101,5	105,8	107,6	106,0
KIYIMLARNI TOZALASH, TA‘MIRLASH, TIKISH VA IJARAGA BERISH										
100,5	100,5	100,9	100,7	104,2	103,5	104,7	104,5	110,9	112,9	113,5
BOTINKALAR, TUFLILAR VA BOSHQA POYABZALLAR										
100,2	100,2	101,3	100,4	102,2	101,3	104,6	101,6	105,6	107,9	106,3
POYABZALLARNI TOZALASH, TA‘MIRLASH VA IJARAGA BERISH										
100,8	100,6	100,8	100,3	107,3	104,6	104,4	106,0	117,5	112,7	117,1

Joriy yilning mayida “Kiyim va poyabzal” (III) bo‘limida INI tebranishlari **99,9 %** dan (o‘g‘il bolalar uchun pidjak, etik va botinkalar) **102,3 %** gacha (kimyoviy tozalash xizmatlari) atrofida joylashdi.

“TURAR JOY XIZMATLARI, SUV, ELEKTR, GAZ VA BOSHQA YONILG‘I TURLARI” BO‘LIMI (IV), % DA


MAY

o‘tgan oyga nisbatan

o‘tgan yilning dekabriga nisbatan


o‘tgan yilning mayiga nisbatan

TURAR JOY UCHUN AMALDAGI IJARA HAQI*




*) kuzatuvga 2021- yilda kiritilgan


TURAR JOYLARGA XIZMAT KO‘RSATISH, TA‘MIRLASH VA QO‘RIQLASH



SUV TA‘MINOTI VA TURAR JOYLARNI SAQLAB TURISH BILAN BOG‘LIQ BOSHQA XIZMATLAR



ELEKTR, GAZ VA YONILG‘INING BOSHQA TURLARI



“Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg‘i turlari” (IV) bo‘limidagi narxlar va tariflarda joriy yilning mayida o‘zgarishlar kuzatilmadi, bo‘lim bo‘yicha qisqa muddatli INI **100,1 %** ni tashkil etdi. Turar joylarga xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlash uchun materiallar INI oy davomida **100,6 %** ga yetgan bo‘lsa, turar joylarga xizmat ko‘rsatish, ta‘mirlash va qo‘riqlash bo‘yicha

xizmatlar INI **98,5 %** darajasida qayd etildi.

Andijon viloyatida maishiy chiqindilarni yig‘ish xizmatlari uchun to‘lov qiymati (o‘rtacha **28,7 %** ga) oshib, respublika bo‘yicha ushbu xizmat turida INI o‘rtacha **2,9 %** o‘shish sur‘atida namoyon bo‘ldi.

“UY-RO‘ZG‘OR ASBOBLARI, MAISHIY TEXNIKA VA TURAR JOYLARGA KUNDALIK XIZMAT KO‘RSATISH” BO‘LIMI (V), % DA


MAY

o‘tgan oyga nisbatan


o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

o‘tgan yilning mayiga nisbatan


MEBEL VA UY-RO‘ZG‘OR ASBOBLARI




MAISHIY USKUNALAR




UY XO‘JALIKLARIDA ISHLATILADIGAN TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI




KUNDALIK TURMUSHDA VA BOG‘DORCHILIKDA ISHLATILADIGAN ASBOBLAR VA MOSLAMALAR



SHISHA IDISHLAR, OVQATLANISH UCHUN ASBOBLAR VA UY-RO‘ZG‘OR ANJOMLARI



UY XO‘JALIGINI YURITISH BILAN BOG‘LIQ HOLDA ISHLATILUVCHI TOVARLAR VA XIZMATLAR



Joriy yilning mayida “Uy-ro‘zg‘or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko‘rsatish” (V) bo‘limida qisqa muddatli INI tebranishlari **99,6 %** dan (tozalash uchun buyumlar) **101,9 %** gacha (batareykalar) oraliqda joylashdi.

“SOG‘LIQNI SAQLASH” BO‘LIMI (VI), % DA


MAY

o‘tgan oyga nisbatan


o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

o‘tgan yilning mayiga nisbatan


DORI VOSITALARI VA TIBBIYOT MAHSULOTLARI




AMBULATORIYADA DAVOLASH BO‘YICHA XIZMATLAR



STATSIONARDA DAVOLASH BO‘YICHA XIZMATLAR



SOG‘LIQNI SAQLASH SOHASIDAGI BOSHQA XIZMATLAR



“Sog‘liqni saqlash” (VI) bo‘limiga kiruvchi tovarlar bo‘yicha qisqa muddatli INI tebranishlari diapazoni joriy yilning may oyida **99,6 %** dan (shprits) **103,0 %** gacha (antigistamin dorilar) oraliqda joylashdi.

Dori vositalari, ambulator davolash va rehabilitatsiya xizmatlari hamda diagnostika vizualizatsiyasi xizmatlari 2023- yilning mayida **101,6 %** ga yetdi.

Profilaktika va himoya moslamalari bo‘yicha mazkur ko‘rsatkich **99,8 %** ni, bintlar va shunga o‘xshash bog‘lash materiallari uchun **99,7 %** ni tashkil etdi.

“TRANSPORT” BO‘LIMI (VII), % DA


MAY

o‘tgan oyga nisbatan


o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

o‘tgan yilning mayiga nisbatan


TRANSPORT VOSITALARINI SOTIB OLISH



SHAXSIY TRANSPORT VOSITALARIDAN FOYDALANISH



YO‘LOVCHI TASHISH TRANSPORTI XIZMATLARI



TOVARLARNI TASHISH BO‘YICHA XIZMATLAR



2023- yilning mayida respublikaning 10 ta hududida benzin narxlarining pasayishi qayd etildi. Ushbu yoqilg‘i turida INI mamlakat bo‘yicha o‘rtacha **99,0 %** darajasida qayd etildi.

Sakkizta hududda propan narxlarida pasayish kuzatildi. Ushbu yoqilg‘i turida INI respublika bo‘yicha o‘rtacha **99,3 %** darajaga yetdi.

Joriy yilning mayida moylash materiallari bo‘yicha qisqa muddatli INI **100,7 %** ni, avtomobil transportida yo‘lovchi tashish transporti xizmatlarida **101,1 %** ni tashkil etdi. Havo transportida yo‘lovchi tashish xizmatlari, aksincha arzonlashib, bu holat milly valyutaning mustahkamlanishi bilan bog‘liq. Kuzatilayotgan yo‘nalishlarda yo‘lovchi aviatashuvlari xizmatlari bo‘yicha INI **99,1 %** darajasida qayd etildi.



MAY

o‘tgan oyga nisbatan

o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

o‘tgan yilning mayiga nisbatan

AXBOROT VA KOMMUNIKATSIYA USKUNALARI



Axborot va kommunikatsiya uskunalari bo‘yicha qisqa muddatli INI joriy yilning mayida **99,8%** darajasida qayd etildi.

Televizorlarning INI oy davomida **99,6%** ni, mobil telefon uskunalari **99,8%** ni, kompyuterlar, planshetlar, periferik uskunalari va ularning sarflash komponentlarida **99,9%** ni tashkil etdi. Mazkur ko‘rsatkich mustahkam o‘rnatilgan (turg‘un) telefon uskunalari **100,4%** ga, ovoz va tasvirlarni qabul qilish, yozib olish va aks ettirish uchun uskunalarda **100,1%** ga yetdi.

AXBOROT VA ALOQA SOHASIDAGI XIZMATLAR




Axborotlashtirish xizmatlari orasida joriy yilning mayida narxlarning o‘shishi axborot va kommunikatsiya uskunalari ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlarda hamda kompleks telekommunikatsiya xizmatlarida qayd etilib, oylik INI **101,3%** va **100,1%** ni tashkil etdi.

“DAM OLISH, SPORT VA MADANIYAT” BO‘LIMI (IX), % DA


2023- yilning may oyi davomida “Dam olish, sport va madaniyat” (IX) bo‘limida ayrim turdagi kamsiyariya tovarlari, kitoblar hamda tirik gullar narxlarida pasayish qayd etildi. Shunday qilib, A4 formatidagi qog‘oz, rassomchilik uchun albomlar, kitoblar, bo‘yoqlar va qalamlarning qisqa muddatli INI **99,5-99,8 %** atrofida tebranib, tirik gullarda **98,8 %** ga yetdi. Konsert zallarining va muzeylarning xizmatlari oy davomida aksincha, qimmatlashdi (INI mos ravishda **104,4-104,7 %**).




DAM OLISHNI TASHKIL ETISH BO‘YICHA XIZMATLAR




MADANIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISH BO‘YICHA XIZMATLAR




KOMPLEKS DAM OLISHNI TASHKIL ETISH




BOG‘DORCHILIK MAHSULOTLARI, UY HAYVONLARI



GAZETALAR, KITOBLAR VA KANSYARIYA TOVARLARI



DAM OLISH UCHUN BOSHQA TOVARLAR



■ o‘tgan oyga nisbatan ■ o‘tgan yilning dekabriga nisbatan ■ o‘tgan yilning mayiga nisbatan

“TA’LIM SOHASIDAGI XIZMATLAR ” BO‘LIMI (X), % DA


MAY

o‘tgan oyga nisbatan


o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

o‘tgan yilning mayiga nisbatan

MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIM



OLIY TA’LIM



BOSQICHLARGA BO‘LINMAGAN TA’LIM



o‘tgan oyga nisbatan				o‘tgan yilning dekabriga nisbatan				o‘tgan yilning mayiga nisbatan		
2020- y.	2021- y.	2022- y.	2023- y.	2020- y.	2021- y.	2022- y.	2023- y.	2021- y.	2022- y.	2023- y.
Xususiy maktabgacha ta’lim tashkilotlari (MTT) xizmatlari										
-	101,6	100,0	100,5	-	103,0	101,1	100,2	-	102,7	103,5
Repetitorlar xizmatlari										
100,2	101,0	100,7	101,1	100,8	104,2	102,3	102,1	108,6	109,6	106,8
Chet tili kurslari va shunga o‘xshash kurslarda o‘qish										
100,2	100,5	101,3	101,2	102,0	103,5	103,6	101,3	108,8	113,3	110,0

Izoh: xususiy MTTlari xizmatlarining narx o‘zgarishi kuzatuvlari 2022- yildan tashkil etilgan.

Davlat MTTlari hamda oliy ta’lim sohasidagi xizmatlarning narxlari darajasida joriy yilning may oyida o‘zgarishlar kuzatilmadi.

“RESTORANLAR VA MEHMONXONALAR XIZMATLARI” BO‘LIMI (XI), % DA


MAY

o‘tgan oyga nisbatan


o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

o‘tgan yilning mayiga nisbatan

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA ICHIMLIKLARNI YETKAZIB BERISH BO‘YICHA XIZMATLAR



MEHMONXONALAR XIZMATLARI



o‘tgan oyga nisbatan				o‘tgan yilning dekabriga nisbatan				o‘tgan yilning mayiga nisbatan		
2020 r.	2021 r.	2022 r.	2023 r.	2020 r.	2021 r.	2022 r.	2023 r.	2021 r.	2022 r.	2023 r.
Kafelardagi tayyor taomlar										
101,2	100,4	101,8	103,1	106,1	104,3	108,3	107,3	113,7	119,0	123,8
Oshxonalar, kafeteriyalar va boshqa oshxonalaridagi tayyor taomlar										
101,0	100,4	102,1	102,9	105,2	104,3	107,8	107,0	115,7	118,6	123,0
Otellar, mehmonxonalar va shunga o‘xshash tashkilotlar xizmatlari										
100,6	99,8	101,0	101,3	103,5	105,2	104,6	104,8	110,6	109,6	118,0
Dam olish maskanlari va shunga o‘xshash tashkilotlar xizmatlari										
100,1	100,0	100,5	101,8	111,9	117,3	112,3	124,3	124,3	113,1	128,2

Umumiy ovqatlanish sohasida joriy yilning may oyidagi qisqa muddatli INI **103,0 %** ni tashkil etdi va narx o‘shishi barcha hududlarda qayd etildi.

Mehmonxonalar xizmati narxlari respublikaning beshta hududida (**0,9-10,8 %** chegarasida), dam olish markazlari xizmati narxi faqatgina Qoraqalpog‘iston Respublikasida oshganligi kuzatildi.

“SUG‘URTALASH VA MOLIYAVIY XIZMATLAR” BO‘LIMI (XII), % DA



SUG‘URTA

may	o‘tgan oyga nisbatan	o‘tgan yilning dekabriga nisbatan	o‘tgan yilning mayiga nisbatan
2020- yil	100,0	100,0	
2021- yil	100,0	100,0	100,0
2022- yil	100,0	100,0	100,0
2023- yil	100,0	100,0	100,0

MOLIYAVIY XIZMATLAR



may	o‘tgan oyga nisbatan	o‘tgan yilning dekabriga nisbatan	o‘tgan yilning mayiga nisbatan
2020- yil	101,9	102,1	
2021- yil	100,2	101,4	106,2
2022- yil	99,6	102,6	102,0
2023- yil	100,0	100,3	106,5

Joriy yilning aprelida kuzatiladigan sug‘urta xizmatlari bozorida narxlar darajasi barqarorlikni saqlab qoldi.

Moliyaviy xizmatlar orasida narxlarning sezilarsiz tebranishlari bank orqali pul mablag‘larini o‘tkazish xizmatlarida qayd etildi. Ushbu xizmat turi bo‘yicha INI oy davomida **100,1 %** ni tashkil etdi. Bu holat milly valyutaning AQSH

dollariga nisbatan kursi tebranishlari va buning natijasida xorijiy valyutada pul mablag‘larini o‘tkazish uchun komission yig‘imlarning o‘zgarishlari bilan bog‘liq.

“MAISHIY TOVARLAR VA XIZMATLAR, IJTIMOIIY HIMOYA VA TURLI TOVARLAR VA XIZMATLAR” BO‘LIMI (XIII), % DA


o‘tgan oyga nisbatan

o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

o‘tgan yilning mayiga nisbatan

may

MAISHIY TOVARLAR VA XIZMATLAR




Joriy yilning mayida guruhga kiruvchi tovarlar va xizmatlar bo‘yicha qisqa muddatli INI tebranishlari diapazoni **99,4 %** dan (shampun), **101,7 %** gacha (tualet qog‘ozi) oraliqda joylashdi.

SHAKSIY FOYDALANISH UCHUN BOSHQA PREDMETLAR



Ushbu guruhga kiruvchi tovarlar bo‘yicha qisqa muddatli INI tebranishlari diapazoni joriy yilning mayida **100,0 %** dan (ayollar sumkalari, maktab ryukzaklari), **102,8 %** gacha (zargarlik xizmatlari) oraliqda joylashdi.

BOSHQA XIZMATLAR



Boshqa xizmatlar bo‘yicha 2023- yilning mayidagi qisqa muddatli INI **105,0 %** ga yetib, asosan huquqiy tUSDagi xizmatlar qiymatining **10,0 %** ga oshishi ta‘sirida shakllandi. Bu holat, joriy yilning may oyida BHM qiymatining oshishi bilan izohlanadi.

2023- YIL MAY OYIDA O‘ZR MIIT – 2018 BO‘LIMLARI KESIMIDA TOVARLAR VA XIZMATLAR NARXLARI O‘ZGARISHINING YIG‘MA INI O‘SISHIGA TA’SIRI

Yig‘ma ko‘rsatkich o‘zgarishiga har bir pozitsiyaning (bo‘lim, guruh, muayyan tovar yoki xizmat) ta’sir ulushi va hissasi pozitsiyalarning narxlar o‘zgarishlari va aholi xarajatlari tarkibidagi salmoq vaznlarini hisobga olgan holda aniqlanadi.

Narx indeksi salmog‘i – narx indeksining shakllanishida qatnashuvchi o‘lcham bo‘lib, ular yordamida:

- kuzatilayotgan hodisalarning umumiy yig‘indisidagi har bir aniq tarkibiy qismning mazmuni ifodalanadi;

- avvaldan o‘zaro solishtirib bo‘lmaydigan birlamchi tarkibiy qismlar taqqoslanadigan shaklga keltiriladi;

- qo‘llanilayotgan tasniflagichning barcha bosqichlari bo‘yicha o‘zaro solishtirilishi mumkin bo‘lgan tarkibiy qismlar ketma-ketligi umumlashtiriladi va o‘rganilayotgan hodisa bo‘yicha narx o‘zgarishining umumiy mohiyati aniqlanadi.

o‘tgan oyga nisbatan	YIG‘MA INI O‘SISH SUR‘ATIGA TA’SIRI, f.d.	UMUMIY O‘SISH SUR‘ATIDAGI ULUSHI, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar	0,16	32,7
Spirтли ichimliklar, tamaki mahsulotlari	0,01	2,0
Kiyim va poyabzal	0,05	10,2
Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg‘i turlari	0,01	2,0
Uy-ro‘zg‘or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko‘rsatish	0,04	8,2
Sog‘liqni saqlash	0,08	16,3
Transport	0,02	4,1
Dam olish, sport va madaniyat	0,02	4,1
Ta‘lim sohasidagi xizmatlar	0,01	2,0
Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari	0,05	10,2
Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar	0,04	8,2

Jami ta’siri **+0,49** f.d.

2023- YIL MAY OYIDA O'zR MIIT – 2018 BO'LIMLARI KESIMIDA TOVARLAR VA XIZMATLAR NARXLARI O'ZGARISHINING YIG'MA INI O'SISHIGA TA'SIRI

o'tgan yilning dekabriga nisbatan	YIG'MA INI O'SISH SUR'ATIGA TA'SIRI, f.d.	UMUMIY O'SISH SUR'ATIDAGI ULUSHI, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar	2,08	55,3
Spirтли ichimliklar, tamaki mahsulotlari	0,04	1,1
Kiyim va poyabzal	0,21	5,6
Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari	0,18	4,8
Uy-ro'zg'or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko'rsatish	0,22	5,9
Sog'liqni saqlash	0,34	9,0
Transport	0,22	5,8
Dam olish, sport va madaniyat	0,02	0,5
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	0,11	2,9
Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari	0,15	4,0
Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar	0,19	5,1

Jami ta'siri **+3,76** f.d.

Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar narxlari o'zgarishining joriy yil mayi oyidagi qisqa muddatli yig'ma INI o'sish sur'atiga ta'siri **+0,16 f.d.** ni tashkil etdi. Kiyimlar va poyafzallar, sog'liqni saqlash, restoranlar va mehmonxonalar sohasidagi xizmatlar narxi o'zgarishi ham o'z ta'sirini (jami hisobda **+0,18 f.d.**) ko'rsatdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar narxlarining oshishi hisobiga 2023- yilning yanvar-mayidagi yig'ma INI **2,08 f.d.** o'sdi, transport va sog'liqni saqlash sohalarida, kiyimlar va poyafzallar, uy-ro'zg'or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko'rsatishda narxlar o'zgarishi yig'ma ko'rsatkichga **0,99 f.d.** qo'shdi.

Boshqa bo'limlarning ta'siri past darajada bo'ldi.

2023- YIL MAY OYIDA O‘ZR MIIT – 2018 BO‘LIMLARI KESIMIDA TOVARLAR VA XIZMATLAR NARXLARI O‘ZGARISHINING YIG‘MA INI O‘SISHIGA TA’SIRI

o‘tgan yilning mayiga nisbatan	YIG‘MA INI O‘SISH SUR‘ATIGA TA’SIRI, f.d.	UMUMIY O‘SISH SUR‘ATIDAGI ULUSHI, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar	5,04	48,6
Spirтли ichimliklar va tamaki mahsulotlari	0,10	1,0
Kiyim va poyabzal	0,82	7,9
Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg‘i turlari	0,52	5,0
Uy-ro‘zg‘or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko‘rsatish	0,70	6,7
Sog‘liqni saqlash	1,05	10,1
Transport	0,81	7,8
Axborot va aloqa	0,02	0,2
Dam olish, sport va madaniyat	0,27	2,6
Ta‘lim sohasidagi xizmatlar	0,07	0,7
Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari	0,44	4,2
Sug‘urtalash va moliyaviy xizmatlar	0,01	0,1
Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar	0,53	5,1

Jami ta’siri +10,38 f.d.

Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar narxlarining tebranishi hisobiga 2023- yilning mayida yillik nisbatdagi yig‘ma INI umumiy **10,38 f.d.** o‘shish sur‘atiga **5,04 f.d.** ta’sir etdi. Shu tariqa, ushbu bo‘lim hissasiga kuzatiladigan barcha tovarlar va xizmatlar jami ta’sirining **48,6 %** i to‘g‘ri keldi.

Boshqa bo‘limlardagi narx o‘zgarishlarining jami ta’siri **5,34 f.d.**, yoki **51,4 %** ni tashkil etdi.



Narxlar statistikasi boshqarmasi,
tel.: +99871 202-80-36, 202-81-74